**Joriy versiya**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

## TOSHKENT SHAHRIDA TURKIYANING IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI FILIALINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Tadbirkorlik sohasida umume’tirof etilgan xalqaro talab va ta’lim standartlari darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, undan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil fevral oyida Turkiya Respublikasiga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqining nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahrida filialini (keyingi o‘rinlarda — Filial) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Filialning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilansin:

ta’lim va ilm-fanning uzluksizligi va izchilligi tamoyili, shuningdek, jahon ta’limi va ilmiy hamjamiyatga uyg‘un integratsiyalashish asosida mutaxassislar, ilmiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

respublika oliy ta’lim tizimiga zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘quv jarayonini joriy qilish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish, ochiq axborot-ta’lim muhitini rivojlantirishga ko‘maklashish;

**Hujjat 17.09.2024 sanasi holatiga**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

TOSHKENT SHAHRIDA TURKIYANING IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI FILIALINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Tadbirkorlik sohasida umume’tirof etilgan xalqaro talab va ta’lim standartlari darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, undan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil fevral oyida Turkiya Respublikasiga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqining nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahrida filialini (keyingi o‘rinlarda — Filial) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar Filialning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilansin:

ta’lim va ilm-fanning uzluksizligi va izchilligi tamoyili, shuningdek, jahon ta’limi va ilmiy hamjamiyatga uyg‘un integratsiyalashish asosida mutaxassislar, ilmiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

respublika oliy ta’lim tizimiga zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘quv jarayonini joriy qilish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish, ochiq axborot-ta’lim muhitini rivojlantirishga ko‘maklashish;

iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilishni rag‘batlantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim oluvchilarning innovatsion g‘oyalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb etish;

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimining xalqaro nufuzini mustahkamlash va uni mintaqaviy ta’lim markazi sifatida tanitish;

mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining istiqbollariga muvofiq tadbirkorlik, iqtisodiyot, moliya, korporativ huquq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, psixologiya sohalarida xalqaro standartlar darajasida, jumladan, dual ta’lim texnologiyalarini qo‘llagan holda, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlash;

ta’lim va ilmiy sohalarda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan uzoq muddatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash;

yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sohasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan har tomonlama hamkorlik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash;

pedagog kadrlarning professional mahorati darajasi va sifatini uzluksiz oshirib borish, Filial professor-o‘qituvchilarining xorijiy mamlakatlardagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarida malaka oshirishini va stajirovka o‘tashini ta’minlash.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

Filial nodavlat oliy ta’lim tashkiloti hisoblanadi;

Filial rektori Filial muassislari (keyingi o‘rinlarda — muassislar) tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

Filial kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda o‘qitishning O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan asosiy bakalavriat yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha barcha darajadagi mutaxassislarni, shu jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan oliy ta’lim tashkiloti — O‘zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadi;

iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilishni rag‘batlantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim oluvchilarning innovatsion g‘oyalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb etish;

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimining xalqaro nufuzini mustahkamlash va uni mintaqaviy ta’lim markazi sifatida tanitish;

mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining istiqbollariga muvofiq tadbirkorlik, iqtisodiyot, moliya, korporativ huquq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, psixologiya sohalarida xalqaro standartlar darajasida, jumladan, dual ta’lim texnologiyalarini qo‘llagan holda, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlash;

ta’lim va ilmiy sohalarda xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan uzoq muddatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash;

yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sohasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan har tomonlama hamkorlik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash;

pedagog kadrlarning professional mahorati darajasi va sifatini uzluksiz oshirib borish, Filial professor-o‘qituvchilarining xorijiy mamlakatlardagi yetakchi oliy ta’lim muassasalarida malaka oshirishini va stajirovka o‘tashini ta’minlash.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

Filial nodavlat oliy ta’lim tashkiloti hisoblanadi;

Filial rektori Filial muassislari (keyingi o‘rinlarda — muassislar) tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

Filial kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda o‘qitishning O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan asosiy bakalavriat yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha barcha darajadagi mutaxassislarni, shu jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan oliy ta’lim tashkiloti — O‘zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanadi;

Filial alohida mol-mulkka, mustaqil balansga ega boʻlgan, tasarrufidagi pul mablagʻlari va mol-mulki bilan oʻz majburiyatlari boʻyicha javobgar hisoblanadi;

Filialda oʻqitish kunduzgi ta’lim shaklida, davlat va ingliz tilida, jumladan, dual ta’lim, elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalarini qoʻllagan holda Filial tomonidan tasdiqlangan oʻquv rejalari hamda dasturlarga muvofiq toʻlov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

Filialda ta’lim faoliyati 2020/2021 oʻquv yilidan boshlab amalga oshiriladi;

Filialga abituriyentlar qabuli va bitiruvchilar attestatsiyasi amaldagi qonunchilikka, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda, Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti (keyingi oʻrinlarda — Universitet) tomonidan belgilangan talab, tartib va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

Filialning bitiruvchilariga:

Universitet ta’lim dasturlari boʻyicha ta’lim olganda, Oʻzbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasida oliy ta’lim toʻgʻrisidagi hujjat sifatida tan olinadigan belgilangan namunadagi Filial diplomi;

Oʻzbekiston Respublikasining davlat ta’lim standarti asosida ta’lim olganda, Oʻzbekiston Respublikasida oliy ma’lumot toʻgʻrisidagi hujjat sifatida tan olinadigan belgilangan namunadagi diplom beriladi.

Filialga belgilangan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasidan litsenziya olgandan soʻng ta’lim faoliyati bilan shugʻullanishiga ruxsat etiladi.

4. Quyidagilar:

Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filialining vasiylik kengashi tarkibi 1-ilovaga;

Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahrida filialini tashkil etish boʻyicha ishchi guruh tarkibi (keyingi oʻrinlarda — ishchi guruh) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Quyidagilar Filial vasiylik kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Filial alohida mol-mulkka, mustaqil balansga ega boʻlgan, tasarrufidagi pul mablagʻlari va mol-mulki bilan oʻz majburiyatlari boʻyicha javobgar hisoblanadi;

Filialda oʻqitish kunduzgi ta’lim shaklida, davlat va ingliz tilida, jumladan, dual ta’lim, elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalarini qoʻllagan holda Filial tomonidan tasdiqlangan oʻquv rejalari hamda dasturlarga muvofiq toʻlov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;

Filialda ta’lim faoliyati 2020/2021 oʻquv yilidan boshlab amalga oshiriladi;

Filialga abituriyentlar qabuli va bitiruvchilar attestatsiyasi amaldagi qonunchilikka, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda, Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti (keyingi oʻrinlarda — Universitet) tomonidan belgilangan talab, tartib va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

Filialning bitiruvchilariga:

Universitet ta’lim dasturlari boʻyicha ta’lim olganda, Oʻzbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasida oliy ta’lim toʻgʻrisidagi hujjat sifatida tan olinadigan belgilangan namunadagi Filial diplomi;

Oʻzbekiston Respublikasining davlat ta’lim standarti asosida ta’lim olganda, Oʻzbekiston Respublikasida oliy ma’lumot toʻgʻrisidagi hujjat sifatida tan olinadigan belgilangan namunadagi diplom beriladi.

Filialga belgilangan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasidan litsenziya olgandan soʻng ta’lim faoliyati bilan shugʻullanishiga ruxsat etiladi.

4. Quyidagilar:

Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filialining vasiylik kengashi tarkibi 1-ilovaga;

Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahrida filialini tashkil etish boʻyicha ishchi guruh tarkibi (keyingi oʻrinlarda — ishchi guruh) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Quyidagilar Filial vasiylik kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Filial faoliyatining tashkil etilishini ta’minlash, uning to‘laqonli faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq tashkiliy, moliyaviy, yuridik, iqtisodiy, o‘quv-metodik, moddiy-texnik va boshqa masalalarni hal etish;

Filial faoliyatini tashkil etish masalalari bo‘yicha Turkiya savdo palatalari va birjalar ittifoqi rahbariyati bilan muzokaralar olib borish va o‘zaro hamkorlik qilish;

zarur loyiha, qurilish-montaj va ta’mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish, Filialni jihozlash, infratuzilmasini yaratish, moddiy-texnik ta’minlashga doir grafiklarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

Filial faoliyatini tashkil etish bo‘yicha tasdiqlangan grafiklarda belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan muntazam nazorat qilish va monitoring olib borish;

ta’lim jarayonini, talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish va takomillashtirish, bakalavr va magistrlar tayyorlash sifatini tizimli ravishda oshirish, Filial bitiruvchilarini ishga joylashtirish, mehnat bozorining keyingi rivojini hisobga olgan holda, mutaxassislar va ilmiy-texnik kadrlar tayyorlashning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda ko‘maklashish;

Filial faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlash uchun xayriya, texnik ko‘mak mablag‘larini (grantlarni) va boshqa budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish;

Filialning moddiy-texnik, o‘quv-metodik bazasini mustahkamlash, uni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan jihozlash, ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilashga ko‘maklashish;

talabalarni, eng avvalo, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash, iqtidorli talabalarni o‘qitish uchun stipendiyalar ajratish, talabalarning yashash sharoitlarini yaxshilash va yashash joylarida bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanishni tashkil etish, shuningdek, ularning dam olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga ko‘maklashish;

keng istiqbolli talabalarni tanlov asosida, kelajakda Universitetga va sohaga ixtisoslashgan xorijdagi boshqa yetakchi ta’lim muassasalariga stajirovka o‘tashga yuborish uchun tanlab olishni hamda ularga xorijda tahsil olish uchun maxsus stipendiyalar ajratishni tashkil etish.

Filial faoliyatining tashkil etilishini ta’minlash, uning to‘laqonli faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq tashkiliy, moliyaviy, yuridik, iqtisodiy, o‘quv-metodik, moddiy-texnik va boshqa masalalarni hal etish;

Filial faoliyatini tashkil etish masalalari bo‘yicha Turkiya savdo palatalari va birjalar ittifoqi rahbariyati bilan muzokaralar olib borish va o‘zaro hamkorlik qilish;

zarur loyiha, qurilish-montaj va ta’mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish, Filialni jihozlash, infratuzilmasini yaratish, moddiy-texnik ta’minlashga doir grafiklarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

Filial faoliyatini tashkil etish bo‘yicha tasdiqlangan grafiklarda belgilangan vazifalarning bajarilishi yuzasidan muntazam nazorat qilish va monitoring olib borish;

ta’lim jarayonini, talabalarning ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etish va takomillashtirish, bakalavr va magistrlar tayyorlash sifatini tizimli ravishda oshirish, Filial bitiruvchilarini ishga joylashtirish, mehnat bozorining keyingi rivojini hisobga olgan holda, mutaxassislar va ilmiy-texnik kadrlar tayyorlashning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda ko‘maklashish;

Filial faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlash uchun xayriya, texnik ko‘mak mablag‘larini (grantlarni) va boshqa budjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish;

Filialning moddiy-texnik, o‘quv-metodik bazasini mustahkamlash, uni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan jihozlash, ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilashga ko‘maklashish;

talabalarni, eng avvalo, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash, iqtidorli talabalarni o‘qitish uchun stipendiyalar ajratish, talabalarning yashash sharoitlarini yaxshilash va yashash joylarida bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanishni tashkil etish, shuningdek, ularning dam olishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga ko‘maklashish;

keng istiqbolli talabalarni tanlov asosida, kelajakda Universitetga va sohaga ixtisoslashgan xorijdagi boshqa yetakchi ta’lim muassasalariga stajirovka o‘tashga yuborish uchun tanlab olishni hamda ularga xorijda tahsil olish uchun maxsus stipendiyalar ajratishni tashkil etish.

6. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi muassislar bilan birgalikda bir oy muddatda Filialning ustavi va tuzilmasi ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi, belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

7. Ishchi guruh (A. Ikramov):

2020-yil 1-avgustga qadar Filialning bino va inshootlari rekonstruksiya qilinishi, shuningdek, Filial professor-o‘qituvchilari uchun yashash joylari tayyorlanishini;

2020-yil 31-avgustga qadar Filial zamonaviy o‘quv-laboratoriya jihozlari, kompyuter va tashkiliy texnika, o‘qitishning texnik vositalari, adabiyotlar, multimedia mahsulotlari, inventar, mebel va boshqa moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanishini;

Filial tanlov asosida ishga qabul qilinadigan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va mentorlar bilan to‘ldirilishini ta’minlasin.

8. Belgilab qo‘yilsinki:

a) Filialga qabul qilish parametrlari manfaatdor vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tegishli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda, muassislarning qo‘shma qaroriga binoan tasdiqlanadi;

b) Filial faoliyati:

talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar;

Filialning vasiylik kengashi qarorlari asosida shakllantiriladigan pul mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlarining grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

v) Filialni tashkil etish, shuningdek, ta’mirlash-tiklash, bino va inshootlarni zarur mebel, kompyuter va boshqa tashkiliy texnikalar bilan jihozlash bo‘yicha tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira fondi mablag‘lari hisobidan;

g) Filial professor-o‘qituvchilari, shu jumladan xorijdan jalb qilinadigan xodimlarning mehnatiga haq to‘lash va xizmat safari xarajatlari Filial, muassislar mablag‘lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

6. O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi muassislar bilan birgalikda bir oy muddatda Filialning ustavi va tuzilmasi ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi, belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

7. Ishchi guruh (A. Ikramov):

2020-yil 1-avgustga qadar Filialning bino va inshootlari rekonstruksiya qilinishi, shuningdek, Filial professor-o‘qituvchilari uchun yashash joylari tayyorlanishini;

2020-yil 31-avgustga qadar Filial zamonaviy o‘quv-laboratoriya jihozlari, kompyuter va tashkiliy texnika, o‘qitishning texnik vositalari, adabiyotlar, multimedia mahsulotlari, inventar, mebel va boshqa moddiy-texnik vositalar bilan jihozlanishini;

Filial tanlov asosida ishga qabul qilinadigan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va mentorlar bilan to‘ldirilishini ta’minlasin.

8. Belgilab qo‘yilsinki:

a) Filialga qabul qilish parametrlari manfaatdor vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarning tegishli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda, muassislarning qo‘shma qaroriga binoan tasdiqlanadi;

b) Filial faoliyati:

talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar;

Filialning vasiylik kengashi qarorlari asosida shakllantiriladigan pul mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya institutlarining grantlari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

v) Filialni tashkil etish, shuningdek, ta’mirlash-tiklash, bino va inshootlarni zarur mebel, kompyuter va boshqa tashkiliy texnikalar bilan jihozlash bo‘yicha tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira fondi mablag‘lari hisobidan;

g) Filial professor-o‘qituvchilari, shu jumladan xorijdan jalb qilinadigan xodimlarning mehnatiga haq to‘lash va xizmat safari xarajatlari Filial, muassislar mablag‘lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

d) Filialda oʻqitishning toʻlov-kontrakt miqdori muassislar bilan kelishilgan holda Filial tomonidan belgilanadi.

9. Filialga:

kadrlarga boʻlgan ehtiyoj va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbolidan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishgan holda ta’limning bakalavriat bosqichi asosiy yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochishga;

professor-oʻqituvchi xodimlar, shuningdek, pedagogik va ilmiy ish olib borishga jalb etiladigan boshqa shaxslarning mehnati, yashashi hamda transport xarajatlari uchun ularga belgilangan tariflar boʻyicha toʻlovni amalga oshirishga ruxsat berilsin.

10. Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda istiqbolda Filialga oʻz kampusini tashkil qilish uchun kasb-hunar kollejlaridan birining bino va inshootlarini belgilangan tartibda tekin foydalanish huquqi asosida berish yuzasidan ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga asoslantirilgan taklif kiritsin.

11. Filial oʻz kampusi tashkil qilinguniga qadar Toshkent shahri, Islom Karimov koʻchasi, 49-uy manzilidagi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 7-binosiga tekin foydalanish huquqi asosida vaqtinchalik joylashtirilsin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Filialda ta’lim sifatini va qonunchilikka rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qilsin.

13. Manfaatdor vazirlik va idoralar oʻzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

14. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vaziri J.A. Qoʻchqorov zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,

2020-yil 17-iyun,

389-son

d) Filialda oʻqitishning toʻlov-kontrakt miqdori muassislar bilan kelishilgan holda Filial tomonidan belgilanadi.

9. Filialga:

kadrlarga boʻlgan ehtiyoj va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbolidan kelib chiqib, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishgan holda ta’limning bakalavriat bosqichi asosiy yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochishga;

professor-oʻqituvchi xodimlar, shuningdek, pedagogik va ilmiy ish olib borishga jalb etiladigan boshqa shaxslarning mehnati, yashashi hamda transport xarajatlari uchun ularga belgilangan tariflar boʻyicha toʻlovni amalga oshirishga ruxsat berilsin.

10. Oʻzbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda istiqbolda Filialga oʻz kampusini tashkil qilish uchun kasb-hunar kollejlaridan birining bino va inshootlarini belgilangan tartibda tekin foydalanish huquqi asosida berish yuzasidan ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga asoslantirilgan taklif kiritsin.

11. Filial oʻz kampusi tashkil qilinguniga qadar Toshkent shahri, Islom Karimov koʻchasi, 49-uy manzilidagi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 7-binosiga tekin foydalanish huquqi asosida vaqtinchalik joylashtirilsin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Filialda ta’lim sifatini va qonunchilikka rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qilsin.

13. Manfaatdor vazirlik va idoralar oʻzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

14. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha oʻrinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vaziri J.A. Qoʻchqorov zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,

2020-yil 17-iyun,

389-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-iyundagi 389-son qaroriga
1-ILOVA

## Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filialining vasiylik kengashi

TARKIBI

1. A.I. Ikramov — Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filiali rektori, Vasiylik kengashi raisi
2. Yusuf Sarinay — Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqining Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti rektori, Vasiylik kengashi hamraisi
3. D.A. Vaxabov — O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi
4. S.M. Buzrukxonov — O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
5. Olgan Bekar — Turkiya Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi Elchisi (kelishuv asosida)
6. Ali Riza Tazjan — Turkiyaning Hamkorlik va muvofiqlash agentligining (TIKA) O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari (kelishuv asosida)
7. O.R. Rijichenko — “U-ENTER” innovatsion tadbirkorlik markazi direktori
8. Volkan Gyuldermez — “Ziraat Bank Uzbekistan” AJ boshqaruvi raisi

Izoh. Vasiylik kengashi a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-iyundagi 389-son qaroriga
2-ILOVA

## Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahrida filialini tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh

TARKIBI

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-iyundagi 389-son qaroriga
1-ILOVA

Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filialining vasiylik kengashi

TARKIBI

1. A.I. Ikramov — Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filiali rektori, Vasiylik kengashi raisi
2. Yusuf Sarinay — Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqining Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti rektori, Vasiylik kengashi hamraisi
3. D.A. Vaxabov — O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi
4. S.M. Buzrukxonov — O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
5. Olgan Bekar — Turkiya Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi Elchisi (kelishuv asosida)
6. Ali Riza Tazjan — Turkiyaning Hamkorlik va muvofiqlash agentligining (TIKA) O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari (kelishuv asosida)
7. O.R. Rijichenko — “U-ENTER” innovatsion tadbirkorlik markazi direktori
8. Volkan Gyuldermez — “Ziraat Bank Uzbekistan” AJ boshqaruvi raisi

Izoh. Vasiylik kengashi a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-iyundagi 389-son qaroriga
2-ILOVA

Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahrida filialini tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh

TARKIBI

1. A.I. Ikramov — O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi, Ishchi guruh rahbari
2. S.M. Buzrukxonov — O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziriningo‘rinbosari
3. Sh.Sh. Sharaxmetov — O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining o‘rinbosari
4. S.X. Bekenov — O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori
5. U.N. Tashkenbayev — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘i
6. K.A. Sharipov — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori
7. Sh.I. Asadov — O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari
8. U.M. Kamaletdinov — Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish respublika markazi direktori
9. A.A. Agzamxodjayev — O‘zbekiston Respublikasining Turkiya Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor elchisi
10. Yusuf Sarinay — Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqining Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti prorektori (kelishuv asosida)

1. A.I. Ikramov — O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi raisi, Ishchi guruh rahbari
2. S.M. Buzrukxonov — O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziriningo‘rinbosari
3. Sh.Sh. Sharaxmetov — O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining o‘rinbosari
4. S.X. Bekenov — O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori
5. U.N. Tashkenbayev — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘i
6. K.A. Sharipov — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori
7. Sh.I. Asadov — O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari
8. U.M. Kamaletdinov — Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish respublika markazi direktori
9. A.A. Agzamxodjayev — O‘zbekiston Respublikasining Turkiya Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor elchisi
10. Yusuf Sarinay — Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqining Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti prorektori (kelishuv asosida)

11. Xakki Arda Tokat — Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqining Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti “Xalqaro tadbirkorlik” kafedrasi mudiri

12. D.B. Begmatova — Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti Xalqaro xamkorlik bo‘yicha prorektor

13. E.E. Rustamov — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o‘zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqob?tni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari kotibiyati mudirining birinchi o‘rinbosari, Ishchi guruh kotibi

*Izoh. Ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

11. Xakki Arda Tokat — Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqining Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti “Xalqaro tadbirkorlik” kafedrasi mudiri

12. D.B. Begmatova — Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti Xalqaro xamkorlik bo‘yicha prorektor

13. E.E. Rustamov — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o‘zgartirishlar, moliya-bank tizimi, davlat aktivlarini boshqarish, raqob?tni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari kotibiyati mudirining birinchi o‘rinbosari, Ishchi guruh kotibi

*Izoh. Ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*